

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2019 yil yanvar-fevral oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarish

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 585,9 mlrd. so'm

Sanoat ishlab chiqarish indeksi – 96,3 %

Iste'mol tovarlari

Iste'mol tovarlari hajmi – 233,8 mlrd. so'm


O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'shish sur'ati – 98,2 %

Kichik biznes

Sanoat mahsulotlarida kichik biznesning ulushi – 50,1 %

Iste'mol tovarlarida kichik biznesning ulushi – 78,0 %

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



- Tog'–kon sanoati va ochik konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.


Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 539,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,0 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 37,8 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 16,5 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish 10,6 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,4 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) tarkibi



1-jadval

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-fevral oylfrida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, % da
Paxta chigiti, t.		
19564,0		94,1
Paxtadan yigirilgan ip, t.		
1970,0		148,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.		
9875,0		109,0
Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona		
293,0		173,4
O'simlik yog'l (tozalangan), t.		
8467,0		71,1
Paxta tolasi, t.		
12022,0		91,2

2019 yil yanvar-fevral oylfrida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, % da
Paxta linti, t.		
1069,0		91,7
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan yuzaki aktiv vositalar, yuvish va tozalovchi vositalari, t.		
170,0		85,0
Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona		
124,2		92,1
Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.		
276,0		78,4

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **(D-seksiya)**.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 100,6 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya)**.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 1,4 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,5 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-fevral oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 585,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 96,3 % ni tashkil etdi.


1-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining xajmi, mlrd. so'm



2-diagramma


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarkibi, % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shahri (46,3 %) va Do'stlik (16,1 %), Paxtakor (7,6 %), Zarbdor (5,3 %), Zafarobod (4,8 %), Arnasoy (4,4 %), Sh.Rashidov (4,1 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.


3-diagramma

2019 yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, %da



4-diagramma

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 233,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 98,2 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 39,9 % ni tashkil etdi.

6-diagramma



2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 63,1 % dan 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 68,0 % ga ko'paygan.


7-diagramma



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 437,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shahrida 1565,0 ming so'mni, Do'stlik tumanida 1477,5 ming so'mni, Paxtakor tumanida 618,8 ming so'mni, Zafarobod tumanida 578,2 ming so'mni tashkil etadi.

8-diagramma


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va istemol tovarlari,
ming so'm



Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 mart holatiga 36 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 139,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.


9-diagramma

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd. so'mda



10-diagramma

Faoliyat yuritayotgan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni, birlik



O'tgan yilning shu davriga nisbatan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 15 taga ko'paygan

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 293,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 50,1 % ni tashkil etdi.


11-diagramma

Jami sanoatda kichik biznesning ulushi, foiz hisobida



12-diagramma

Hududlar miqyosida jami sanoat hajmida kichik biznes ulushi, %da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 mart holatiga 2448 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 877 tasi Jizzax shahrida, 534 tasi Sharof Rashidov, 211 tasi G'allaorol, 182 tasi Zomin, 108 tasi Forish, 93 tasi Zarbdor, 87 tasi Paxtakor, 82 tasi Baxmal, 76 tasi Do'stlik, 65 tasi Mirzacho'l, 54 tasi Zafarobod, 44 tasi Arnasoy, 32 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

13-diagramma



2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 78 ta horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yurib kelmoqda, jumladan Jizzax shaharda 44 ta, Forish tumanida 8 ta, G'allaorol, Sharof Rashidov, Do'stlik, Zomin tumanlarida 4 tadan, Paxtakor tumanida 3 ta, Zarbdor, Zafarobod, Yangiobod tumanlarida 2 tadan va Baxmal, Mirzacho'l tumanlarida 1 tadan horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni:

(0371) 230-83-47